

**O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-jou kommunal xo'jaligi vazirligi,  
hududiy bo'linmalari va uning tuzilmasiga kiradigan tashkilotlar  
shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha moddani kiritish  
to'g'risida YO'RIQNOMA**

1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-jou kommunal xo'jaligi vazirligi (bundan buyon matnda vazirlik deb yuritiladi), uning hududiy boshqarmalari va tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan tuzilgan barcha shartnomalarga (shu jumladan, oldi-sotdi, xizmat ko'rsatish shartnomalari, investitsiya bitimlari va boshqalar), korrupsiyaga qarshi modda (ushbu yo'riqnomaning 1-ilovasi) kiritilishi kerak, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan va o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan shartnomalar bundan mustasno.

2. Kontragentning tashabbusi bilan korrupsiyaga qarshi moddaning standart matnini o'zgartirishga, korrupsiyaga qarshi modda vazirlik, uning hududiy boshqarmalari yoxud tasarrufidagi muassasalar kontragenti tomonidan taklif qilgan versiyasida kiritilishiga ruxsat beriladi.

Agar vazirlik, uning hududiy boshqarmalari yoki tasarrufidagi muassasalar kontragenti korrupsiyaga qarshi moddaning standart matniga tuzatishlar kiritsa, yoki korrupsiyaga qarshi modda vazirlik, uning hududiy bo'limlari yoki tasarrufidagi muassasalar kontragenti tomonidan taklif etilgan versiyada shartnomaga kiritilgan bo'lsa, shartnoma matnni tasdiqlash tartibi doirasida shartnoma tashabbuskori huquqiy bo'limga yuboriladigan hujjatlarga quyidagilarni ilova qilishi kerak:

- shartnoma bo'yicha tomonlar imzolagan korrupsiyaga qarshi moddaning standart matnida kontragent tomonidan kiritilgan o'zgarishlarni aks ettiruvchi farqlar protokoli;

- o'zaro hamkorlik va ko'rib chiqilayotgan shartnoma doirasida mazkur kontragentga nisbatan korrupsion va reputatsion (obro'i) tavakkalchiliklarni tahlil qilish natijalari asosida tuzilgan, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul bo'lgan shaxsning korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha modda matniga o'zgartirishlar kiritish imkoniyati haqida yozma xulosasi.

3. Agar vazirlik, uning hududiy bo'limlari yoki tasarrufidagi muassasalarining kontragenti korrupsiyaga qarshi modda bilan to'ldiriladigan shartnomani imzolashdan bosh tortsa, shartnoma tashabbuskori tasdiqlash tartibining

bir qismi sifatida yuridik boshqarmaga (yuridik maslahatchiga) yuboriladigan shartnoma matniga quyidagi hujjatlarni ilova qilishi kerak:

- kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish tugʻrisidagi moddani shartnomaga kiritishdan bosh tortganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi, shu jumladan:

a) shartnomaga korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha moddani kiritishni rad etish sababi keltirilgan, kontragent tomonning vakolatli shaxsi tomonidan imzolangan xat;

b) tomonlar imzolangan shartnoma matniga korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida moddani kiritishdan kontragentning bosh tortganligini aks ettiruvchi norozilik protokoli;

- Koʻrib chiqilayotgan shartnoma doirasida oʻzaro hamkorlik oʻrnatishda korrupsiyaga qarshi kurash uchun masʼul boʻlgan shaxsning mazkur kontragentga nisbatan korrupsion va reputatsion (obroʻi) tavakkalchiliklarni tahlil qilish natijalari asosida tuzilgan, korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha moddani oʻz ichiga olmagan shartnoma tuzish imkoniyati haqida yozma xulosasi.

4. Shartnoma yoki qoʻshimcha kelishuvni tasdiqlash boʻyicha belgilangan tartib doirasida yuridik boʻlimning (yuridik maslahatchining) masʼul xodimi shartnoma matnida korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha moddaning mavjudligiga (shu jumladan, u oʻzgargan taqdirda, korrupsiyaga qarshi kurash uchun javobgar shaxsning roziligi), yoki kontragent korrupsiyaga qarshi moddani kiritishdan bosh tortsa 3-bandda koʻrsatilgan hujjatlar mavjudligiga, ular mavjud boʻlmagan taqdirda esa, shartnoma yoki qoʻshimcha kelishuv matnida korrupsiyaga qarshi modda kiritilganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

5. Agar shartnoma boʻyicha tomonlardan biri xodimlarning mazkur shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha qoidalariga va/yoki Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid boʻlgan xatti-harakatlariga, shu jumladan korrupsiyaga qarshi harakatlarni sodir etishga majburlash faktlariga duch kelsa, tomon bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabar berishi lozim:

- ishonch telefoni orqali (+998) 71 210-11-04, ichki 1066;
- rasmiy saytda joylashtirilgan shakl orqali [mc.uz];
- elektron pochta orqali [<https://mc.uz/oz/view-page/anti-corruption>].

### **Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha modda namunasi**

1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar, shu jumladan ularning xodimlari, kafillangan shaxslar, benefitsiarlar va shartnomani bajarish uchun jalb etiladigan biznes hamkorlar, vositachilar, pudratchilar yoki agentlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashga rioya etilishini ta'minlaydilar, ular bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali takliflar, va'dalar, hadyalar, tovlamachilik, iltimoslar, pul mablag'lari, boshqa qimmatbaho buyumlar, mol-mulk, mulkiy huquqlar yoki boshqa moddiy va/yoki nomoddiy foyda olish maqsadida rozilik berish yoki biron-bir shaxsdan asossiz foyda olish, o'z lavozimlaridan noto'g'ri foydalanish yoxud boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun ularga ta'sir ko'rsatishdan tiyladilar. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rishni kafolatlaydi.

2. Tomonlar mazkur shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bandlarini buzish yoki buzilish ehtimoli haqida shubha paydo bo'lganligi to'g'risida yozma ravishda (shu jumladan korporativ elektron pochtdan foydalangan holda) bir-birlarini oshkora va tezkor xabardor qilishlari shart.

Shuningdek, tomonlardan birida ikkinchi tomon O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va/yoki ushbu shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha biron-bir moddasini buzish holatini sodir etgan yoki sodir etishi mumkin bo'lganligi to'g'risida oqilona, asoslantirilgan shubhalar yuzaga kelgan taqdirda, mazkur tomon talab kelib tushgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida, tegishli moddalarni buzish faktini rad etuvchi yoki tasdiqlovchi izoh va ma'lumot/hujjatlarni taqdim etish to'g'risidagi talab bilan yozma so'rov yuborishga haqlidir.

Tomonlardan biri mazkur modda talablariga rioya qilmasa, shuningdek, boshqa tomondan belgilangan muddati ichida qonun buzilishi sodir bo'lmaganligi yoki sodir bo'lmasligi, shuningdek tomonning korrupsiya xavfini kamaytiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirganligi to'g'risida xabar olmasa, boshqa tomon mazkur bitimni bir tomonlama bekor qilish, shuningdek, uning ijrosini to'xtatib turish huquqiga ega.

3. Ushbu moddada [ko'rsatilishi shart] ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash mazkur shartnoma moddasida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, mazkur

moddaniy majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomani bir tomonlama bekor qilish natijasida ko‘rilgan zararlar uchun tovon to‘lashni talab qilishga haqli emas.

4. Agar shartnoma bo‘yicha tomonlardan biri xodimlarning mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qoidalariga va/yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lgan xatti-harakatlariga, shu jumladan korrupsiyaga qarshi harakatlarni sodir etishga majburlash faktlariga duch kelsa, tomon bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabar berishi lozim:

- ishonch telefoni orqali (+998) 71 210-11-04; ichki raqam 1066.
- rasmiy saytda joylashtirilgan shakl orqali [<https://mc.uz/anti-corruption>];
- elektron pochta orqali [mc.uz].
- telegram bot orqali (qurilish Komplayens bot)